

UDC 004.928

CHET TILLARINI O'RGANISHDA MOBIL ILOVALARNI O'RNI

PhD. Xasanov Adxamjon Akramovich

Annotatsiya. Ushu maqola mobil ilovalar orqali chet tillarini o‘rganishning yangicha usuli haqida. Ya’ni mazkur mobil dastur 3D virtual reallikda sun’iy intellekt bilan jonli suhbat orqali o‘rganishni o’z ichiga oladi.

Kalit so’zlar: Unity 3D, model, 3D model, Virtual Reallik, Sun'iy intellekt

Аннотация. Эта статья о новом способе изучения иностранных языков через мобильные приложения. То есть это мобильное приложение охватывает обучение в 3D виртуальной реальности посредством живого чата с искусственным интеллектом.


Ключевые слова. Unity 3D, model, 3D model, Виртуальная реальность, искусственный интеллект

Abstract. This article is about a new way to learn foreign languages through mobile applications. That is, this mobile application covers learning in 3D virtual reality through live chat with artificial intelligence.

Keywords. Unity 3D, model, 3D model, Virtual Reality, Artificial Intelligence

Hozirga kunga kelib innovatsion rivojlanish kun sayin jadallab bormoqda. Har bir sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishilayotgani hech kimga sir emas. Hozirgi kunda chet tilini o‘rganuvchilar uchun ham bir qancha mobil ilovalar mavjud. Lekin ko‘pgina til o‘rgatuvchi mobil ilovalar o’zbek tilidagi interfeysga hamda 3D ko‘rinishga ega emas. Quyida biz chet tilini o‘rgatuvchi mobil ilovani bir usulini ko‘rib o‘taylik.

Til o‘rganuvlar uchun Unity 3D dasturi orqali turli xil tillarni virtual-jonli o‘rganishni o’zbek tilida yo‘lga qo‘yish kerak (1-rasm).




1-rasm. Unity 3D dasturi interfeysi

Bunda uyali telefon orqali virtual o‘qituvchi ayol bilan muloqoti yaratiladi. 3D model sifatida yaratilgan o‘qituvchi inson hayvonlarni, meva-sabzavotlarni va boshqa doimiy hayotimizda qo‘llaniladigan predmetlarni 3D modeli bilan, hatto hayvon-jonzotlarni ovozi hamda harakati bilan aytib, o‘rgatadi. Buni eng qulayligi ham shundaki, foydalanuvchi o‘rganayotgan predmetlarini yana ham anglab tushunish uchun har tomonlama aylantirib ko‘rishi mumkin. Bu esa eslab qolish uchun juda qulay yo‘l hisoblanib, shu so‘z bilan ko‘z o‘ngida gavdalanishi esda qolishda yaxshi rol o‘ynaydi. Dars so‘ngida virtual o‘qituvchi o‘zlashtirilgan yangi so‘zlarni o‘zbek tilida so‘rab, ingliz (yoki o‘rganilayotgan tilda) javob qaytarishingizni talab qiladi. Bu vaqtda foydalanuvchi ingliz tilida javob qaytaradi agar to‘g‘ri o‘rgatilgandek va sof talaffuz qilinsa tasdiq tariqasida shu predmetni dars avvalidagi 3D modeli paydo bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Virtual til o‘rganish interfeysi

Bu dastur orqali nafaqat tillarni hattoki ibora va so‘zlashuv gaplarini ham o‘rganish mumkin. Buni restoran misolida ko‘rsak. Virtual o‘qituvchi avval so‘zlashuv gaplarini o‘rgatadi, masalan ofitsant bilan. Dars so‘ngida virtual o‘qituvchi ofitsant ko‘rinishiga o‘zgaradi va sizdan huddi real hayotdagidek "Nima istaysiz?- what would you like?" savoliga dars avvalida o‘rgangan ibora gaplaringizni qo‘llashlari mumkin bo‘ladi. Misol uchun: "Men bir chashka kofe ichmoqchiman - i would like a cup of coffee" misolida javob qaytarganda dasturga kiritilgan algoritm yordamida dars boshida ko‘rsatilgan bir chashka qahvani 3D modeli paydo bo‘ladi va shu bilan boshqa so‘rovlarni amalga oshirishi yoki virtual ofitsant savollariga o‘rganayotgan tilida javob qaytarib suhbat qilishi mumkin. Biz bu yo‘l bilan til o‘rganuvchilarni nafaqat so‘z boyligini hatto ularni to‘g‘ri talaffuz qilishlarini, real suhbatdagi hayajonlarini ketkazishni ta’milagan bo‘lamiz. Mazkur loyihada til o‘rganuvchilar istalgan yoshdagilarni qamrab olishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. Virtual til o’rganish interfeysi

Bunda foydalanuvchi dasturni yuklab oladi, nishon (target) sifatida mavjud biror yerni dasturni o‘zida rasmga oladi. Bundan maqsad keyingi 3D jarayonlar mana shu belgilangan nishon(target)ni o‘zi uchun o‘rnash joyi deb qabul qiladi va shu nishonni kamerada yoqatmasdan foydalanishni talab qiladi. So‘ng virtual 3D o‘qituvchi bilan dars boshlanadi (4-rasm).



4-rasm. Virtual til o’rganish interfeysi

Mazkur ilova Unity 3D dasturi orqali yaratiladi. Bunda C# dasturlash tili orqali buyruqlar yoziladi va shu bilan birga Unity 3D dasturini o‘zini elektron kutibxonasidan yordamchi pluginlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar

1. Alex Okita. Learning C# Programming with Unity 3D. 2020, 691 p.
2. M.Aripov, B.Begalov va b. Axborot texnologiyalari O'quv qo'llanma T.: "Noshir" 2009. 368-b.
3. Cay Horsman, C++ For everyone. Printed in the United. 2010.